

HOMILADORLAR FIZIOLOGIYASINI INTEGRASIYA ORQALI O'RGATISH USULLARI

Shodmonova G.S

*Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi*

“Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi” degan edilar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, bu borada zamonaviy ta'limni, zamonaviy integrasiyani ham nazarda tutgan edi. Bu bejizga emas. Zero, ta'limda talabalarga ma'lum bilimlar tizimini yetqazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivasiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integrasiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi - talabalarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, muntaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir. Pedagogik texnologiya turli-turman qirralarga ega. Biz ushbu maqolada faqat bir masala - integrasiya va shu orqali samarali natijaga erishish yo'l-yo'riqlaridan biri haqida to'xtalmoqchimiz.

Integrasiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali talabalar dunyoqarashi kengayadi:

Idrok o'sishida ijod qilish muhim ahamiyatga ega. Integrativ darslarni tashkil qilishda ijod qilish orqali talabalarning zehni rivojlantirish mumkin, Fanlararo aloqa darslaridagi ko'pgina mashqlar o'quvchini izlashga, fikrlashga, tibbiyot va tabiyat, jamiyat va muhit, kayfiyat va xotirjamlikni taqqoslashga, ijodiy kashfiyot qilishga o'rgatadi. Demak, integrasiya ijodiylik, zukkolik, xotirani mustahkamlash, izlanish, tasavvur hosil qilish demakdir. Tasavvur hosil qilish natijasida ijodkorlik ruhi paydo bo'ladi, ijodkorlik esa tafakkur rivojiga turtki beradi. Shuning uchun ham o'quv fanlari orasidagi aloqani bilish, ta'lim jarayonida ana shu qonuniyatlarga asoslanish muhimdir.

Darhaqiqat, integrasiyaning bu imkoniyatlaridan har bir fan sohasida o'rinli foydalanish mumkin. Masalan, Akusherlik fanida “ Homiladorlar fiziologiyasi” mavzusini atroflicha yoritish uchun o'qituvchi, avvalo, quyidagi tartibda ish yuritadi, amaliyot darslarining mavzular ro'yhati avvaldan o'quvchilar qo'lida bo'lishi lozim. Barcha o'quvchi darsga uy vazifasi sifatida berilgan mavzuni o'qib, o'zlashtirib kelishlari kerak. Guruhdagi o'quvchilar 3 guruhga bo'linishadi, har guruh 5-6 kishidan iborat. Birinchi guruh a'zolari "O'qituvchilar", ikkinchi guruh “Talabalar” uchinchi guruh “Kuzatuvchilar” deb atalishadi (ushbu guruh o'quvchilari avvaldan uyda, vazifa sifatida o'zlari uchun tarqatma-didaktik materiallar: test savollari, vaziyatli, muommoli masalalar, kross vordlar tuzib kelishadi).

1 guruh "O'qituvchilari" navbat bilan dars mavzusi bo'yicha "Talabalar" dan qisqa savol-javob o'tkazishadi. So'ngra mavzuga doir amaliy ko'nikmalar va muolajalarni jihozlar (fantom, mulyaj, qo'g'irchoq, akusherlik ko'zgulari, stetoskop) yordamida ko'rsatib berishlarini talab qilishadi. Har ikki guruhning ishlarini 3-guruh "Kuzatuvchilar" tahlil qiladi va daftarlariga yozib boradilar. Birinchi va ikkinchi guruh o'z vazifalarini tugatgach uchinchi guruh ularni bajargan ishlari tahlilini e'lon qilib, ular yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatib, ko'rsatib berishadi. Agar kerakli ma'lumot ololmasalar oldindan o'zlari tayyorlab kelishgan test savollari hamda vaziyatli, muommoli masalalar berib ular olgan ballarini ko'tarishga harakat qilishadi. Amaliy mashg'ulotni olib boruvchi asosiy fan o'qituvchisi har uchala guruh talabalarini ya'ni guruhdagi barcha talabani darsdagi faolligiga va bilimiga qarab baholaydi hamda darsni umumlashtirib, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritib darsni yakunlaydi va keyingi mavzuni uyga vazifa tarzida berib, guruhlardagi talabalar o'rnini almashtiradi.

"O'qituvchilar": Savol: Homiladorlik fiziologiyasi haqida gapirib bering?

Talabalar»: Javob: Har qanday tirik mavjudodning hayotiy xususiyatlaridan biri nasil qoldirish bo'lganligi sababli inson ham o'zidan avlod davomchilari qoldiradi, buni esa ayol jinsiga mansub insonlar bajarishadi. Shunday ekan, homiladorlik fiziologik holat bo'lib, ma'lum vaqt o'tgach ya'ni 280 kun, 10 akusherlik oyi yoki 9 oy o'tib yakunlanadigan, hamda ayol organizmi faoliyatiga, agar u sog'lom bo'lsa ta'sir qilmaydigan va qayta tiklanadigan jarayondir.

«O'qituvchilar: Savol: Ayol va erkak jinsiy hujayralarining bir-biridan yaqqol ajratib turuvchi farq nimada?

«Talabalar Javob: Ayol jinsiy hujayrasi harakatsiz, erkak jinsiy hujayrasi harakatchan hujayra hisoblanadi.

«O'qituvchilar: Savol: Homiladorlikni qanday belgilarini bilasiz?

Talabalar»: Javob: Gumonli, ehtimolga yaqin va aniq belgilari farqlanadi.

«O'qituvchilar: Savol: Homiladorlikning aniq belgilariga nimalar kiradi? «Talabalar»: Javob: Homiladorda akusherlik tekshirishlari o'tkazib ya'ni homila qismlarini paypaslab topish, Leopold Lazarevichning 4 amalidan foydalanish, stetoskop yordamida homila yurak tonlarini eshitish, ikki qo'llab bimanual (tashqi va ichki) tekshirishlar o'tkazib aniqlash mumkin.

«O'qituvchilar: Savol: Bimanual tekshiruvlarni fantomda ko'rsatib bera olasizmi?

«Talabalar»: Javob: (istalgan talaba javob beradi). Bimanual tekshirish natijalari: bachadon kattalashgan, bachadon bug'zi ancha yumshaganligi sababli bachadon bo'yni oson suriladi, bachadon konsistensiyasi yumshagan (ayniqsa bachadon bo'yni), bachadon mexanik ta'sirga javob beradi, bachadon asimmetriyasi kuzatilyapti, homila tuxumi bachadonning chap tomoniga ko'proq yaqin.

«O'qituvchilar»: Savol: Yuqorida javob bergan talabaning javobidan foydalangan holda homiladorlik belgilarini avtorlar bo'yicha sanang.

«Talabalar»: Javob: Bachadon bo'ynining suriluvchan bo'lishiga dastlab Gubarev va Gausslar e'tibor berishganligi uchun, Gubarev va Gauss belgisi deb aytiladi, bachadon

konsestensiyasining yumshashi-Gorvis-Gegar belgisi, bachadonning mexanik ta'sirga javob reaksiyasi - Snegirev belgisi, bachadon asimmetriyasi- Piskachek belgisi deb yuritiladi.

«O'qituvchilar» guruhi o'z vazifalarini bajarib, xulosa yasashib o'quvchilarni baholashadi. Agar «Kuzatuvchi»lar yana qo'shimcha ma'lumotlar olishni xohlashsa savol-javob davom ettiriladi.

«Kuzatuvchilar»: Savol: Yana qanday usullar bilan homiladorlikni aniqlash mumkin?

«Talabalar»: Javob: Homiladorlik diagnostikasining biologik usullaridan ya'ni Ashgeym-Sondek gormonal reaksiyasidan, Galli-Maynini reaksiyasidan, Fridman reaksiyasidan, immunologik diagnostikadan Vide va Genzell usullaridan foydalanish mumkin. Hozirda bu sanamalar deyarli o'tkazilmaydi.

«Kuzatuvchilar»: Masala: Homila yurak tonlari homilador ayol kindik sohasining yuqori - chap tomonidan eshitilyapti. Homila qanday yotganligini aniqlab bering.

«Talabalar»: Javob: Chanoqning oldinda yotishi, birinchi vaziyat, oldingi tur yoki chanoqning oldinda yotishi, birinchi vaziyat orqa tur.

«Kuzatuvchilar»: Savol: Homiladorlikni kechki muddatlarda aniqlashda asosan nimalarga e'tibor beriladi?

Talabalar: Javob: Kechki muddatlarda homiladorlikni aniqlashda asosan Leopold-Lazarevich amallarini qo'llashga, homilani qimirlashiga, yurak tonlarini eshitib ko'rishga, homila skeletini rentgen tasvirini olishga hamda EKG, FKG, UZI tekshiruvlari o'tkazib aniqlashga ahamiyat beriladi.

«Kuzatuvchilar»: Savol: Maxsus tekshirish usullari ham bormi?

«Talabalar»: Javob: Ha, bor. Amnioskopiya va amniosentez usulidan foydalanish mumkin. Amnioskopiya homilaning shikastlanmagan pardalar orqali ko'rinib turadigan qog'onoq suvlarini ko'zdan kechirish usulidir. Ularning rangiga qarab (yashilroq, sariq, loyqa) homila gipoksiyasi, gemolitik kasallik va boshka asoratlar boshlanayotganligi haqida fikr yuritiladi

Amniosentez qog'onoq suvlaridan olinib, tekshirib ko'rish uchun qog'onoq pardasini teshib tekshirishdir. Bu usul gemolitik kasalliklarning og'ir formasi va boshka asoratlardan gumon qilinganda o'tkaziladi.

Integrasiyalı darslarni tashkil qilishda yuqorida keltirilgan mavzudagi darsdan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Talaba mavzuga oldindan tayyorgarlik ko'radi.
2. Barcha talaba bir vaqtning o'zida darsga jalb qilinadi.
3. Bemorga mustaqil yondashish ko'nikmasi ortadi.
4. Talabada bir joyga jamlay olish xususiyati shakllanadi.
5. Talaba mustaqil ishlaydi.
6. O'z fikrini bayon qilish hamda o'zga fikrini tahlil qila olish kabi xususiyatlar shakllanadi va mustakamlanadi.
7. Talabada o'z kasbiga mehr shakllana boradi.

Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quv fanlari va mavzularni integrasiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta'lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo'riqish sarflanishlarining oldi olinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ruscha-lotinchcha O'zbekcha tibbiy lug'at. Toshkent, "Kamalak" "xazina" nashriyoti, 1996 yil.
2. Akusherlik. Ya. N. Allayarov. Toshkent. 2007-yil.
3. Shodmonova, G. S. (2024). GLOBAL TIBBIYOT TERMINLARINING INNOVATSION TADQIQI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 136-139.
4. Shodmonova, G. S. (2024). BOLALARGA TIBBIY VA TARBIYAVIY KOMILLIK TUSHINCHALARINI O'RGATISH. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 140-148.
5. Shodmonova, G. S. (2022). Uzbek Interpretation of Global Medical Terms. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 1(9), 246-248.
6. Pravochnik prakticheskogo vracha. Moskva, "Bayan", 1992 Yil.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent, " OME " Davlat ilmiy nashriyoti, 2020 yil.
8. Yosh, Fil (1960). "Revmatik kasalliklar". Homiladorlik va laktatsiya davrida terapiya (1-nashr.). Routledge. 177-192 betlar.
9. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... Научный Фокус, 1(7), 190-193.
10. Altorok, Nezam; Nada, Shigeyuki; Nagaraja, Vivek; Kahaleh, Bashar (2016-06-15). "17-bob-suyak va bo'g'imlarning buzilishlarida Epigenetika". Tollefsbolda Trygve O. (ed.). Tibbiy Epigenetika (tasvirlangan ed.). Akademik Matbuot. 295-314 betlar.
11. Rao, Sudha (2019-01-24). Olmos, Gerbert S. (tahr.). "Noartikulyar Revmatizm/Mintaqaviy Og'riq Sindromi". emedicsina.
12. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(6), 56-59.
13. "Skarlatina: A Guruhidagi Streptokokk Infektsiyasi". Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi. 19 yanvar 2016.
14. "Qizamiq (Rubeola) belgilari va alomatlari". Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari. 3 noyabr 2014.
15. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 5(1), 16-18.
16. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155.